

“АЛТРУИЗМНИНГ ШАХС РИВОЖЛАНИШИДАГИ ПСИХОЛОГИК ВА ПЕДАГОГИК ТАЪСИРИ”

Isaxanova Moxidil Erkinovna

Qo'qon DU o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada altruizm fenomeni psixologik va pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Altruizm shaxsning ijtimoiy munosabatlardagi roli, uning psixologik asoslari va ta'limdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Maqolada altruizmning turli shakllari, uning ijtimoiy barqarorlikka ta'siri hamda uni tarbiya jarayonida shakllantirish usullari tahlil qilinishi maqsad qilinadi.

Tayanch iboralar: Altruizm, egoism, shaxs, hamdardik, xulq-atvor, ehtiyoj, o'zaro munosabat, ijtimoiy me'yor, o'zaro hurmat

Annotation: This article examines the phenomenon of altruism from psychological and pedagogical perspectives. Altruism is analyzed in terms of its role in social interactions, its psychological foundations, and its significance in education. The study aims to explore different forms of altruism, its impact on social stability, and the methods of fostering altruistic behavior through the educational process.

Key terms: Altruism, egoism, personality, empathy, behavior, need, social interaction, social norm, mutual respect.

Altruizm fenomeni inson xulq-atvorining eng yuqori insoniy sifatlaridan biri bo'lib, boshqalarga manfaat keltirish va o'z manfaatlarini ikkinchi darajaga qo'yishga asoslangan. Altruizm fenomeni zamonaviy tadqiqotlarda biosotsial va psixologik nuqtai nazardan o'rganilmoqda. V.R. Keyseľman ishlab chiqqan altruizm modeli turli xil xulq-atvor shakllarini tavsiflaydi va ularni tabiiy va ijtimoiy altruizmga ajratadi. Tabiiy altruizm (qarindosh/ota-ona altruizmi, jinsiy, o'zaro /darajali/ koalitsiyaviy, majburlash) va ijtimoiy altruizm (haqiqiy va nevrotik). Transfinit altruizm esa inson xulq-atvorining eng yuqori darajasi bo'lib, uning asosini umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat, ruhiy erkinlik va tashabbuskorlik tashkil etadi. Bu turdagi altruizm shaxsning hech qanday tajovuzkorlikka moyil bo'lmasligini va faqat sevgi va mehrni fidokorona namoyon etish orqali amalga oshirilishini ta'minlaydi.¹

V.E.Yakimova altruizmning quyidagi turlarini aniqlaydi: empatik, egoistik, mavhum (normativ), adaptiv bo'lmagan (kontra-adaptiv). Egoistik altruizm bo'lsa, xayriya psixologik yoki axloqiy qoniqish istagi bilan belgilanadigan boshqa bironing manfaati uchun amalga oshiriladi. Savol tug'iladi: bunday harakatni haqiqiy altruizm deb hisoblash mumkinmi? Mavhum yoki me'yoriy altruizm ijtimoiy me'yorlar bilan belgilanadi: diniy, madaniy (masalan, ota-ona, Vatan

¹ Кейсельман В.Р. (Дорожкин). Грани альтруизма. – Киев 2016. – 320 с.

oldidagi burch, g'oya nomidan o'lim). Moslashuvchan bo'lmagan altruizm – sub'ektning o'ziga zarar keltiradigan harakatligini ta'kidlaydi.²

Amerikalik psixologlar L.E.Park, J.D.Troisi va J.K.Manner tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar Qo'shma Shtatlardagi jamoat tadqiqot universiteti (Buffalodagi Nyu-York shtat universiteti)da amalga oshirilib, jamoaviy o'zaro ta'sir sharoitida odamlarning motivatsiya turlarini – altruistik va egoistik yo'nalishlarni o'rganishga qaratilgan. Ular altruistik xulq-atvorni odamlarning o'zaro munosabatni kutmasdan, boshqalarning ehtiyojlariga e'tiborli bo'lish qobiliyati va ularga yordam berishga tayyorligi sifatida aniqladilar.

Tadqiqotchilar altruistik xatti-harakatlarning insonning xavfsizlik hissi va o'zini hurmat qilish darajasi bilan bog'liqligini ta'kidlaydilar. Ular ijobiy bog'lanish uslubini namoyon etadigan, yuqori darajadagi hamdardlikka ega, o'ziga ishonchli va boshqalar uchun o'zini qadrlaydigan odamlar fidokorona xatti-harakatlarga ko'proq moyil bo'lishini aniqlaganlar. Bunday insonlar ijtimoiy yordam ko'rsatish va boshqalarga ko'mak berish orqali ruhiy salomatlikning yanada barqaror bo'lishiga erishadilar.

Altruistik va egoistik yo'nalishlar inson motivatsiyasining muhim jihatlaridan biri sifatida o'rganilgan. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, egoistik yo'nalish ustun bo'lgan shaxslar ko'proq shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga intiladi va ijtimoiy manfaatlarni ikkinchi darajali deb hisoblaydi. Bunday shaxslar, odatda, o'zlarini himoya qilish va shaxsiy muvaffaqiyatni ta'minlashga yo'naltirilgan strategiyalardan foydalanadilar.

Boshqa tomondan, altruistik yo'nalishga ega shaxslar o'z xatti-harakatlarini jamiyat va boshqalarga manfaat yetkazish printsipi asosida shakllantiradi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bunday xulq-atvor nafaqat jamiyat uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi, balki shaxsning psixologik holatini muvozanatli saqlashda ham muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy yordam ko'rsatish va boshqalarga qo'llab-quvvatlash berish insonning xavfsizlik hissini oshiradi, o'zini qadrlash va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqotchilar altruistik yo'nalishning shaxs uchun foydali ekanligini ta'kidlab, uning ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash va shaxsiy psixologik barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini o'rganganlar.

Shuningdek, altruizm - bu o'z atrofida yuqori sifatli jamiyat yaratish, o'zini yaxshi his qilish va hamdardlik orqali shaxsiy quvonch olishdir", - deydi neyropsixolog Alyona Vanchenko.³

Altruizm turlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilgan F.Assizskiy shaxsda al'truizm namoyon bo'lishining bir necha ko'rinishlarini tahlil qilgan⁴:

Ota-onalik altruizmi – inson biologik ravishda o'z avlodiga g'amxo'rlik qilishga moyildir. Bu jarayon evolyutsiya davomida shakllangan va ota-onalik instinkti sifatida qaraladi. Ota-ona o'z farzandlarining manfaatlarini himoya

²Якимова Е.В. Феномен альтруизма: новые аспекты и современные аналитические тенденции //

Социологический ежегодник. – 2012: Сб. науч. тр. / Ред. и сост. Н.Е. Покровский, Д.В. Ефременко. – М.: ИНИОН РАН. 2012. – С. 241- 266.

³JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS <http://www.newjournal.org/> Volume–28_Issue-1_May_2023118

⁴ Ильин Е.П. Психология общения и межличностных отношений . – СПб.: Питер. 2009. 576 с.

qilishga, ularning xavfsizligi va taraqqiyotini ta'minlashga intiladi. Ba'zi hollarda bu instinkt shaxsning o'zini qurbon qilishga tayyor bo'lishi bilan tavsiflanadi.

O'zaro yordam altruizmi – shaxs boshqalarga yordam berishda kutilgan mukofot yoki qayta yordam olishni nazarda tutmaydi. Bu xulq-atvor qo'shma manfaatlar, mustahkam ijtimoiy aloqalar va ishonch asosida shakllanadi.

Axloqiy altruizm – inson boshqalarga yaxshilik qilish tamoyilini shaxsiy qadriyatlar tizimiga integratsiya qilgan holda amalga oshiradi. Bu turdagi altruizm axloqiy majburiyat va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonlari orqali shakllanadi. Volontyorlik faoliyati, jamoatchilik ishlari va xayriya ishlari ana shu turdagi altruizmning yorqin namoyoni hisoblanadi.

Namoyishkorona altruizm – shaxs jamoat oldida ijtimoiy maqomini tasdiqlash yoki ijtimoiy e'tirofga erishish maqsadida faoliyat olib boradi. Bunday altruizm namoyon bo'lish shakllari bilan farqlanadi, uning asosiy omillari ijtimoiy mavqeni mustahkamlash va ijtimoiy guruhlar oldida e'tirofga erishish bilan bog'liq.

Hamdardik altruizmi – shaxs boshqalarning ehtiyojlarini chuqur his qilishi va emotsional ta'sirchanlik darajasi yuqori bo'lishi natijasida sodir etadigan fidokorona harakatlar. Bu turdagi altruizm psixologik hamdardlik, o'zaro tafakkur va inson munosabatlarini chuqur anglash mexanizmlari orqali shakllanadi.

Ushbu turlar inson xulq-atvorining ichki va tashqi omillari bilan shakllanib, shaxsning ijtimoiy muhitdagi roli va shaxsiy ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

L.Kolbepgning tadqiqotlarida keltirilishicha, axloqiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra altruistik xulq psixik pivojlanishning nisbatan erta bosqichlarida shakllanadigan va xulq-atvop nazoratining yuksak dapajada, ya'ni o'zini - o'zi anglash dapajasida namoyon bo'luvchi psixologik tuzulma ekanligini izohlash imkonini beradi.⁵

Shuningdek, L.Kolbepg nazariyasiga muvofiq izohlanganda quyidagi tuzilmalarga e'tibor qaratilgan: shaxsdagi altruistik xulq motivlari asosiy qadriyatlar, ya'ni ijtimoiy me'yor, vijdon, o'z xissiyotlarini ifodalash qobiliyati, avtoritet, fuqarolik hissi, o'zaro ishonch va adolatlilik, o'zaro muhabbat negizida shakllanadi hamda uning xulqdagi «altruizm» fenomeniga nisbatan insonlarning munosabati nuqtai nazaridan farqlanadi. Har qanday xulq «o'zaro almashinishdagi adolatlilik» tamoyiliga bo'ysunadi. Bunda ota-onabola, pedagog-o'quvchi, pedagog-talaba, sibling munosabatlari tizimida altruistik hislarni o'zaro almashinishida ijtimoiy adolatning bo'lishi nazarda tutiladi. Ontogenetik taraqqiyotda shaxsning umumiy axloqiy tamoyillarni qabul qilishi va uni ichki sintezlashishi natijasida shaxsiy qadriyatlar tizimining bazaviy asosida altruizmning namoyon bo'lishi kuzatiladi. Natijada shaxs altruizmni tizimli ravishda axloqiy operatsiyalarida jamiyat me'yorlariga bo'ysungan holda yuzaga chiqara boshlaydi, deya ta'kidlanadi.

Altruizm shaxs psixologiyasida muhim fenomen hisoblanib, u insonning xulq-atvori, emotsional kechinmalar, ustanovkalar va shaxs yo'nalganligi bilan bog'liqdir.

⁵Kohlberg Lawrence. Essays on Moral development. Vol. 1: The philosophy of moral development. San Francisco, CA: Harper & Row. 1981. -224 p.

B.I.Dodonovning ta'kidlashicha, shaxs o'zidagi altruizmga tug'ma moyillikni yuzaga chiqarishi uchun dastlab, altruistik emotsional kechinmalarni namoyon qiladi. Bu holat esa shaxsda altruistik pozitsiyani shakllanishiga olib keladi, bu jarayonni shaxs tomonidan to'la anglanib yechilishi shaxsda altruistik yo'nalganlikni keltirib chiqaradi.⁵

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

1. Altruizm fenomeni shaxsning ma'naviy qiyofasini belgilab beruvchi, uning jamiyat hayotiga daxldorligini, yurt manfaatlarini ustun qo'yishini anglatuvchi vatanparvarlik xissining motivatsion jihatini asoslovchi xulq-atvor shakli hisoblanadi;

2. Shaxsdagi altruistik xulqning ratsional shakli beg'arazlik tamoyiliga asoslanib ijtimoiy adolat, o'zaro hurmat, hamkorlikdagi faollikni namoyon qilishida intellektual xususiyatlarga ustuvorlik berilishi bilan tavsiflanadi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, altruizm fenomeni va uning shakllarini ilmiy nuqtai nazardan quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Altruizm shaxsning jamiyat hayotidagi roli va vatanparvarlik hissi bilan chambarchas bog'liq. U insonning ijtimoiy mansubligi, jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yishi va yurt taraqqiyoti uchun mas'uliyat hissi bilan tavsiflanadi. Shaxsning sotsial faolligi va jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi uning axloqiy yo'nalishi va ijtimoiy hushyorligini namoyon qiladi.

2. Altruizmning ratsional shakli beg'arazlik tamoyiliga asoslangan bo'lib, shaxsning ijtimoiy adolat, o'zaro hurmat, hamkorlikdagi faollik va intellektual yetakchilikka moyilligi bilan tavsiflanadi. Bu xulq-atvor modellari shaxsning bilim, tafakkur va madaniy darajasi bilan bog'liq bo'lib, jamiyatda ijtimoiy muvozanatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Shu tariqa, altruizm nafaqat shaxsiy ma'naviy kamolotning ko'rinishi, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlaydigan muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Atabaeva N.B. "Shaxsda al'truistik xulqni rivojlantirishning psixologik asoslari" 19.00.06 – yosh va pedagogik psixologiya. rivojlanish psixologiyasi psixologiya fanlari doktori (dsc) Avtoreferat. Toshkent -2022.

2. Якимова Е.В. Феномен ал'труизма: новые аспекты и современные аналитические тенденции // Социологический ежегодник. – 2012: Сб.науч.тр./Ред. и сост. Н.Е. Покровский, Д.В. Ефременко. – М.: ИНИОН РАН. 2012. – С. 241- 266.

3. Sh.Yuvashov "O'quvchilarda alturistik fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasi".Namangan-2023.

Молчанова С.В.Маркина О.С.Динамика морал `ной ориентации в младшем подростковом, страшем подростковом и юношеском возрастах (Элнектронный ресурс) // Психологическая наука и образование psyedu.ru. 2014. Т.6. №4. С. 134-146.

⁵ Додонов Б.И. Эмоции как ценность/ Б.И.Додонов. - М.: Политиздат. 1978. – 272 с.

4. Ил`ин Е.П. Психология общения и межличностных отношений . – СПб.: Питер. 2009. 576 с. Kohlberg Lawrence. Essays on Moral development. Vol. 1: The philosophy of moral development. San Francisco, CA: Harper & Row. 1981. -224 p.

5.Додонов Б.И. Эмоции как ценност ` / Б.И.Додонов. - М.: Политиздат. 1978. – 272 с.